



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 24 avgust

№ 1819

## O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayrami munosabati bilan “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari, O‘zbekiston Sudyalari assotsiatsiyasi Markaziy kengashi va Sud tizimi faxriylari markazi boshqaruv kengashining 2023 yil 17 avgustdagi 14-sonli qo‘shma majlisi qaroriga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayrami munosabati bilan sud tizimida yuksak obro‘-e‘tibor qozongan, sudyalik burchini benuqson, samarali va halol amalga oshirgan, jamiyatda odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va yosh sudya kadrlarni yetishtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan quyidagilar “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlansin:

Boboyev Muxitdin Yaxyoyevich;  
Ergashev Baxtiyar Usmanovich;  
Ibragimov Yusupjan Siddikovich;  
Ilyasov Kosbergen Toreyevich;  
Iskandarov Mirzamahmud;  
Kadirov Axror Axundjanovich;  
Kaipnazarova Saodat Alimbetovna;  
Kambarov Eshmurza;  
Kasimova Akida Axrarovna;  
Kudratov Xamidulla Nasimovich;  
Kurbonova Zaripaxon Muminjonovna;  
Muxanov Kalbay;  
Narkuziyev Raxmanberdi Sherbayevich;  
Ochilov Ravshan Bekanovich;  
Raupov Muzaffar Pulatovich;  
Vaxobov Tojiddin Sharofidinovich;  
Xalilov Dilmir Abduraxmanovich.

2. “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganlarga ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi tantanali vaziyatda topshirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash Sudyalar oliy kengashi kotibi X.Sadikov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

XN03751287